



## TRANSFORMATION OF HUMAN ACTIVITY AND SOCIAL RELATIONS IN THE DIGITAL SOCIETY

**Sharof Abdurakhmonovich Islomov**

*Independent Researcher*

*Namangan State University*

*Namangan, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** digital society, digitalization, human activity, social relations, digital transformation, information and communication technologies, digital culture.

**Received:** 22.02.26

**Accepted:** 23.02.26

**Published:** 24.02.26

**Abstract:** This article provides a theoretical analysis of the transformation of human activity and social relations in the context of a digital society. The rapid development of digital technologies and information and communication tools has fundamentally changed the forms of social interaction, communication mechanisms, labor practices, cultural processes, and modes of self-identification. The study examines the impact of digitalization on social space, the emergence of new social practices and identities, as well as the opportunities and risks associated with the digital environment. The findings contribute to a deeper understanding of the changing relationship between individuals and society in the digital age.

## RAQAMLI JAMIYATDA INSON FAOLIYATI VA IJTIMOIIY MUNOSABATLAR TRANSFORMATSIYASI

**Sharof Abduraxmonovich Islomov**

*Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

*Namangan, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** raqamli jamiyat, raqamlashtirish, inson faoliyati, ijtimoiy munosabatlar, raqamli transformatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli madaniyat.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada raqamli jamiyat sharoitida inson faoliyati va ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi natijasida

ijtimoiy aloqalar shakli, muloqot mexanizmlari, mehnat faoliyati, madaniy jarayonlar hamda shaxsning o'zini anglash usullari tubdan o'zgarayotgani asoslab beriladi. Tadqiqotda raqamlashtirish jarayonining ijtimoiy makonga ta'siri, yangi ijtimoiy amaliyotlar va identifikatsiya shakllarining vujudga kelishi, shuningdek, raqamli muhit bilan bog'liq imkoniyatlar va xavf-xatarlar tahlil qilinadi. Maqola natijalari raqamli jamiyat sharoitida inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

## ТРАНСФОРМАЦИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И СОЦИАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ

**Шароф Абдурахмонович Исломов**

Независимый исследователь

Наманганский государственный университет

Наманган, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** цифровое общество, цифровизация, человеческая деятельность, социальные отношения, цифровая трансформация, информационно-коммуникационные технологии, цифровая культура.

**Аннотация:** В статье рассматривается трансформация человеческой деятельности и социальных отношений в условиях цифрового общества с научно-теоретической точки зрения. Стремительное развитие цифровых технологий и информационно-коммуникационных средств приводит к качественным изменениям форм социального взаимодействия, механизмов коммуникации, трудовой деятельности, культурных процессов и способов самоидентификации личности. В исследовании анализируется влияние цифровизации на социальное пространство, формирование новых социальных практик и идентичностей, а также возможности и риски, связанные с цифровой средой. Результаты статьи способствуют более глубокому осмыслению современных процессов взаимодействия человека и общества в цифровую эпоху.

**Kirish.** Zamonaviy jamiyatning jadal o'zgarib borayotgan sharoitida axborot va raqamli texnologiyalarning roli tubdan ortib, ijtimoiy institutlar faoliyatida mazmuniy va strukturaviy transformatsiyalarni yuzaga keltirmoqda. Natijada iqtisodiy, siyosiy, madaniy va kommunikativ tizimlar bilan bir qatorda, inson faoliyati shakllari hamda ijtimoiy munosabatlarning an'anaviy mexanizmlari qayta ko'rib chiqilmoqda. Bu jarayon shaxsning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi, o'zini anglash va ijtimoiy aloqalarni amalga oshirishning yangi usullarini izlash bilan uzviy bog'liqdir.

Shu bilan birga, raqamli jamiyat sharoitida jamiyat hayotini qo'llab-quvvatlovchi, nisbatan barqaror va uzoq muddatli maqsadlarga yo'naltirilgan ijtimoiy tuzilmalar va qadriyatlar tizimiga bo'lgan ehtiyoj kuchayib bormoqda. Aynan ushbu elementlar ijtimoiy tuzilmaning muvozanatini saqlash, transformatsiya jarayonlarining yo'nalishini belgilash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli o'zgarishlar fonida jamiyat taraqqiyotining sifat ko'rsatkichlari, inson salohiyati va axborot muhitiga moslashuv masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini tubdan o'zgartirib, inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy jarayonlarning samaradorligi, shaxs va guruhlarining faol ishtiroki ko'p jihatdan axborotga ega bo'lish, uni qayta ishlash va undan samarali foydalanish qobiliyati bilan belgilanmoqda. Shu bois axborot va bilim zamonaviy jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biriga aylanmoqda.

Axborotlashtirish jarayoni murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, u iqtisodiyot, siyosat, madaniyat va kundalik hayot kabi sohalarni qamrab oladi. Mazkur jarayon jamiyatni yangi texnologiyalar va axborot resurslari bilan to'ldirgan holda, ijtimoiy munosabatlar dinamikasini tezlashtiradi hamda inson faoliyatining yangi shakllarini vujudga keltiradi. Shu bilan birga, axborotlashtirish ijtimoiy rivojlanishning ichki mexanizmlarini ham o'zgartirib, zamonaviy jamiyatda inson faoliyati va ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasini chuqur ilmiy tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda raqamli jamiyat sharoitida inson faoliyati va ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasini tahlil qilishda kompleks va fanlararo metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini ijtimoiy-falsafiy tahlil, zamonaviy sotsiologik konsepsiyalar hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini izohlovchi ilmiy yondashuvlar tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida dialektik metod asosida ijtimoiy jarayonlarning o'zgaruvchanligi, ularning ichki ziddiyatlari va rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi. Shuningdek, tizimli yondashuv orqali raqamli jamiyatning tarkibiy elementlari – inson faoliyati, ijtimoiy munosabatlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va madaniy muhit – o'zaro bog'liq yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqildi.

Maqolada tahliliy va taqqoslama metodlardan foydalanilib, raqamli texnologiyalar ta'sirida yuzaga kelayotgan yangi ijtimoiy amaliyotlar, muloqot shakllari va identifikatsiya jarayonlari an'anaviy ijtimoiy munosabatlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Kontent-tahlil usuli yordamida ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va zamonaviy tadqiqotlarda aks etgan raqamli jamiyatga oid qarashlar umumlashtirildi.

Bundan tashqari, umumilmiy metodlar – induksiya va deduksiya, abstraksiyalash va umumlashtirish – tadqiqot xulosalarini mantiqiy asoslashda qo'llanildi. Mazkur metodologik yondashuvlar inson faoliyati va ijtimoiy munosabatlarning raqamli muhitdagi o'zgarishlarini chuqurroq anglash, ularning imkoniyatlari va xavf-xatarlarini aniqlash hamda ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Qo'llanilgan metodologiya tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlab, raqamli jamiyat sharoitida inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning transformatsiyasini kompleks tarzda yoritishga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda "axborot madaniyati" tushunchasiga berilgan ta'riflar tahlili turli mualliflar so'zlarining turlicha konsyepsiyasini ilgari surishlarini ko'rsatadi. Ulardan ba'zilari buni axborot maydonida erkin bo'lishga va uning shakllanishida ishtirok etishga imkon beradigan bilim darajasi[1. C.67-68.]; jamiyatni axborotlashtirish jarayoniga imkon beruvchi, axborotlashgan jamiyatda zarur bo'lgan, shaxsning xususiyatlari yoki xislatlari[2], madaniy qadriyatlar bilan taqozo etilgan aksiologik xarakterdagi axborot faoliyati[3. – C.12-39.] deya ta'kidlashadi. Boshqalari esa uni yangi aloqa va fikrlash turi[4], yoki mantiqiy fikrlashning rivojlanish darajasi, elektron madaniyatni tahlil qilish va sintez qilish qobiliyati[5. – C.120-124] sifatida tushunadilar.

"Axborotlashgan jamiyat" iborasini ilk bor yapon olimi Yu.Xayashi va bir necha yapon tashkilotlaridagi mutaxassislar qo'llagan, – deb yozadi olim. – Axborotlashgan jamiyat haqidagi tushunchalarni yana Y. Masuda kengaytirib, postindustrial jamiyat nazariyasi haqidagi falsafiy konsepsiyasida axborot ijtimoiy hayotning barcha sohalarida peshqadamlik qilishini va jamiyatning texnologik taraqqiyoti davrida hukm suradigan "axborot xokimiyati" vujudga kelishini asoslab beradi. Aslida "axborot hokimiyati" sanoatlashgan jamiyatda davlat

boshqaruvining amaldagi uchta hokimiyatiga nisbatan norasmiy tarzda "to'rtinchi hokimiyat" izdoshidir. Y.Masuda insoniyat tamadduni rivojlanishini an'anaviy, sanoatlashgan va axborotlashgan (postsanoatlashgan) jamiyatga bo'lib, unda axborotlashgan jamiyatning 10 ta atributi: "Xizmatlar sohasi (uyushtirish va boshqarish, informatika va telekommunikatsiyalar)", "Yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish (shaxsiy va madaniy ehtiyojlarni qondirish)", "Ziyolilar, texniklar va olimlar rolining o'sishi", "Bilimlar (amaliy va nazariy)", "Ilmtalab, axborot talab, innovatsion sohalar", "Axborot", "Qonun chiqaruvchi, ijroiya, sud hokimiyati, axborot hokimiyati, bilim hokimiyati", "Ma'lumot, kasb malakasi, bilimdonlik", "Axborotlashgan pedagogika, innovatsion texnologiyalar, shu jumladan, yangi axborot texnologiyalari", "Umumiy madaniyat, kasb madaniyati, axborot madaniyati" mavjudligiga ajratgan"[5. – B. 51 – 52.].

O'zgarishlar insonning axborot olamidagi o'rniga bevosita ta'sir qiladi. Inson jamiyatning axborot va texnik xususiyatlari vektoriga muvofiq o'zgaradi. Biroq, bu ishlab chiqarish va iste'molning yangi shartlarini passiv qabul qilish emas. shaxs axborot va texnik xususiyatlardan ancha uzoq bo'lgan axborot haqiqatining sub'ekti sifatida harakat qiladi. Kundalik hayotning axborotlashuvi va inson mavjudligining yangi axborot maydonining paydo bo'lishi inson hayoti dunyosida iz qoldirmasdan o'tmaydi. Elektron makonda shaxsning xulq-atvor standartlari va qiymat yo'nalishlari o'zgaradi.

Axborotlashgan jamiyat nazariyasining yirik vakillaridan biri sotsiolog Manuel Kastells birinchilardan bo'lib axborotlashgan jamiyatda tarmoqlarning ahamiyati masalasini ko'tarib chiqdi. Uning "axborot jamiyati" (information society) bilan "axborotlashgan jamiyat" (informational society) konsepsiyalari orasida sezilarli farq borligi haqidagi fikrlari muhim. Agar birinchi holda axborotning jamiyatdagi hal qiluvchi roli ta'kidlangan bo'lsa, yangidan paydo bo'layotgan "axborotlashgan jamiyat" shunday qurilmoqdaki, unda "axborotni yaratish, qayta ishlash va uzatish mehnat samaradorligi va kuch-qudratning asosiy manbaiga aylanadi"[7. – C. 26.].

Sanoat ishlab chiqarishining, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotning tobora murakkablashishi, inson faoliyatining barcha sohalaridagi jarayonlar dinamikasining o'zgarishi, bir tomondan, bilimga bo'lgan ehtiyojning ortishiga olib keldi, ikkinchidan, bu ehtiyojlarni qondirishning yangi vositalari va usullarini yaratish.

I.Z.Abdullayev o'zining "Axborotlashgan jamiyat va globallashuv: neoliberal konsepsiyaning tanqidi" nomli monografiyasida insoniyat taraqqiyotining bosqichlarini davrlashtirish doirasida axborot jamiyatining shakllanishi jarayonlarini o'rgangan.[7.] Uning

milliy makonda axborot almashinuv jarayonini o'ziga hos kechishi borasidagi fikrlari ham ahamiyatlidir.

Axborot sanoati rivojlanishining ma'lum bir bosqichiga yetib, "axborot jamiyati" deb ataladigan narsa tug'iladi. Infratuzilmaviy rivojlanish axborot iqtisodiyoti, axborot tipidagi iqtisodiyot va uning eng yuqori ko'rinishi – bilimlar iqtisodiyotining shakllanishi asosida yotadi[9. – C. 47-52.]. Yagona mexanizm – milliy chegaralarga ega bo'lmagan odamlarning axborot hamjamiyatini shakllantirmoqda. Axborot jamiyatini shakllantirishning asosini eng yangi axborot, telekommunikatsiya va kommunikatsiya texnologiyalari tashkil etadi[10]. Aynan yangi texnologiyalar global axborot tarmoqlarining tez tarqalishiga olib keldi, xalqaro axborot almashinuvi uchun prinsipial yangi imkoniyatlar ochdi.

Axborotlashgan jamiyat tushunchasi dastlab amerikalik sotsiolog Daniel Bell tomonidan axborot texnologiyalarining tarixiy rivojlanishiga bag'ishlangan tadqiqotlar doirasida chuqur ilmiy tahlil qilingan. Ushbu izlanishlar natijasida axborotlashgan jamiyat konsepsiyasi ishlab chiqilib, unda jamiyat taraqqiyotida axborot va bilimning hal qiluvchi ahamiyati asoslab berilgan. Bell konsepsiyasiga ko'ra, axborotlashgan jamiyat bir qator o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Birinchidan, informatsion-texnik jihat jamiyat tomonidan yaratiladigan va foydalaniladigan texnik-texnologik resurslar majmuasini ifodalaydi. Ikkinchidan, ijtimoiy-informatsion jihat jamiyat hayotida axborot texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanish bilan bog'liq bo'lib, ijtimoiy jarayonlarning tezlashuvi va murakkablashuvini belgilaydi. Uchinchidan, ijtimoiy-texnik jihat ijtimoiy va antropologik o'zgarishlarni qamrab olib, inson faoliyati va ijtimoiy munosabatlar shakllarining yangilanishida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari, mobil aloqa va internet tarmoqlarining jadal rivoji natijasida yuzaga kelayotgan yangi ijtimoiy muammolar jamiyat hayotiga axborotlashuvning bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

Falsafa fanlari nomzodi M.Yoqubova "Ijtimoiy taraqqiyot va madaniyatning axborotlashuvi" kitobida "Axborotlashgan jamiyatda axborotga ommaviy ravishda erkin va bimalol egalik imkoniyati mavjud, uning mohiyati sifatida kompyuter texnologiyasini ijtimoiy-iqtisodiy sohaning turli jihatlarida joriy etishgina emas, balki butun mashinalashtirilgan axborotlashuv texnologiyalarini shakllantirish, ularni ommaviy ravishda ijtimoiy organizmga payvandlash va faoliyatning yangi turlarini paydo qilish maqsadida ulardan foydalanish hisoblanadi"[12. – B.9.], deb yozadi. Ko'rinadiki u diqqatini axborotlashgan jamiyat paydo qiladigan imkoniyatlarga qaratgan.

**Tahlil va natijalar.** Axborotlashtirish zamonaviy jamiyat taraqqiyotining murakkab va ko'p qirrali jarayoni bo'lib, u inson faoliyatining iqtisodiy, siyosiy, madaniy va kundalik hayot kabi turli sohalarini qamrab oladi. Jarayon sifatida axborotlashtirish jamiyatning barcha ijtimoiy qatlamlari va institutlarini bilim, axborot resurslari hamda yangi texnologiyalar bilan to'ldiradi. Natijada ijtimoiy munosabatlar mazmunan yangilanib, jamiyat rivojlanishining sur'atlari va yo'nalishlari o'zgaradi. Axborotlashtirish bir tomondan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni tezlashtirsa, ikkinchi tomondan ekologik, axloqiy va ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltirib, ijtimoiy dinamikaning murakkablashuviga olib keladi.

Axborot jamiyati bir qator muhim xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Avvalo, jamiyat tomonidan axborot inson faoliyatining boshqa barcha mahsulotlariga nisbatan ustuvor resurs sifatida anglanadi. Axborot iqtisodiy qiymatga ega bo'lib, ijtimoiy rivojlanishning asosiy omiliga aylanadi.

Shuningdek, inson faoliyatining barcha sohalarida – iqtisodiy, ishlab chiqarish, siyosiy, ma'rifiy, ilmiy, ijodiy va madaniy jarayonlarda – axborot fundamental asos sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy sharoitda axborot inson faoliyatining muhim mahsuli bo'lib, bilim yaratish va innovatsiyalar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi.

Axborot jamiyatida ma'lumotlar sof shaklda iqtisodiy munosabatlar subyekti sifatida namoyon bo'lib, ularni ishlab chiqarish, sotish va sotib olish bozor mexanizmlarining muhim qismiga aylanadi. Shu bilan birga, aholining barcha qatlamlari uchun axborotdan foydalanishda teng imkoniyatlar yaratish ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanishning muhim sharti sifatida qaraladi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash va intellektual mulkni himoya qilish masalalari axborot jamiyatining ajralmas jihati bo'lib, bu sohada huquqiy va institutsional mexanizmlarning takomillashtirilishini talab etadi. Axborot almashinuvi asosida davlatlar va ularning barcha tuzilmalari o'rtasida o'zaro hamkorlik kuchayib, boshqaruv jarayonlari yangi sifat bosqichiga ko'tariladi. Shu bilan birga, axborot jamiyatini rivojlantirish va tartibga solishda davlat hamda jamoat tashkilotlarining muvofiqlashtirilgan faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompyuter va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi turli xil axborotlardan keng foydalanishga asoslangan yangi ijtimoiy muhitni shakllantirib, axborot jamiyatining rivojlanishini jadallashtiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Axborotlashtirishning keng ko'lamli ijtimoiy jarayon sifatidagi o'ziga xos xususiyati shundaki, u nafaqat o'zaro bog'liq o'zgarishlar majmuini, balki jamiyatdagi o'zgarishlarning darajalari, "to'lqinlari" ni ham o'z ichiga oladi. Bu nafaqat ma'lum bir axborot hodisalarini joriy



etish va moslashtirish, balki butun jamiyat yoki alohida ijtimoiy elementlarning rivojlanishning yangi bosqichiga sifat jihatidan yangi o'tishidir[14].

Axborot jamiyatida ham shaxslar, ham guruhlarining faoliyati ularning xabardorligi va mavjud ma'lumotlarni samarali to'plash, saqlash va undan foydalanish qobiliyatiga tobora ko'proq bog'liq. Buning uchun maxsus texnik vositalardan foydalanmasdan, ba'zan odamning kuchidan tashqarida bo'lgan katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash kerak.

Axborot jamiyatida nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi, qadriyatlar tizimi, madaniy hordiq chiqarishning moddiy qadriyatlarga nisbatan ahamiyati oshadi. Industrial jamiyat bilan taqqoslaganda, axborot jamiyatida aql va bilim ishlab chiqarish vositasi va mahsulotiga aylanadi, bu esa, o'z navbatida, aqliy mehnat ulushining oshishiga olib keldi. Insondan ijodkorlik qobiliyati talab qilinadi, bilimga talab ortadi

Raqamli dunyo formatidan tashqariga chiqadigan barcha psixologik fenomenologiya (kiberbulling, tarmoq flesh-moblari, onlayn tajovuzkor xatti-harakatlar, bezorilik yoki aksincha, qo'llab-quvvatlash) va nafaqat psixologik (ish qidirish, intervyular, masofaviy ish va uchrashuvlar va boshqalar) bizga imkon beradi. Internet makonini inson qadri fenomeni - yangi muhitda mavjud bo'lish yo'llarini ochib beradigan raqamli dunyo deb atashadi. Bu dunyo bugungi kunda zamonaviy inson hayotining bir qismiga aylandi, bizning kundalik hayotimiz haqiqatiga aylandi[15].

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlash sharoitida inson kapitalining rivojlanish vektorini aniqlashda inson kapitali uchun odamlarning ilmiy va innovatsion faoliyatidan kelib chiqadigan yashirin va kechiktirilgan xavflarni hisobga olish kerak. Shunday qilib, C. Perrou tomonidan asoslab berilgan "oddiy baxtsiz hodisalar" ta'siri murakkab texnologik tizimlarning odamlarga ikki tomonlama ta'sirini ochib beradi, bu esa kechiktirilgan xavflar ko'rinishida namoyon bo'ladi[16]. Jamoatchilik ongi va hissiyotlariga ta'sir etuvchi axborot va kommunikatsiya oqimlari na axloqiy, na madaniy chegaralar bilan cheklanmaydi.

Tadqiqot jarayonida raqamli jamiyat sharoitida inson faoliyati va ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasi ko'p qatlamli va murakkab ijtimoiy jarayon ekanligi aniqlandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga kirib borib, ijtimoiy aloqalar, mehnat faoliyati, muloqot shakllari va madaniy amaliyotlarning mazmunini tubdan o'zgartirmoqda. Natijada an'anaviy ijtimoiy munosabatlar bilan bir qatorda yangi raqamli ijtimoiy makon va unda amal qiluvchi yangi ijtimoiy me'yorlar shakllanmoqda.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli muhitda inson faoliyati tobora ko'proq axborotga ega bo'lish, uni qayta ishlash va undan samarali foydalanish qobiliyatiga bog'liq bo'lib bormoqda. Bu holat ijtimoiy munosabatlarning tezkorligi va moslashuvchanligini oshirsa-da, bir vaqtning o'zida ijtimoiy tafovutlarning yangi shakllarini ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlaridagi farqlar ijtimoiy tengsizlikning raqamli ko'rinishlarini shakllantirayotganligi kuzatildi.

Raqamli jamiyatda muloqot jarayonlari ham sifat jihatidan o'zgarib, yuzma-yuz aloqalardan ko'ra masofaviy va vositali kommunikatsiya shakllari ustuvor tus ola boshladi. Bu jarayon ijtimoiy munosabatlarning ko'lamini kengaytirgan holda, shaxsiy identifikatsiya, ijtimoiy rol va o'zini namoyon etish usullarining qayta talqin qilinishiga olib kelmoqda. Tahlil natijalariga ko'ra, raqamli muhit inson uchun yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda, psixologik bosim, axborot haddan tashqari ko'pligi va manipulyativ ta'sirlar kabi xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Shuningdek, tadqiqotda raqamlashtirish jarayonlari mehnat faoliyatining mazmunini o'zgartirib, ijodiy va intellektual faoliyatga bo'lgan talabni kuchaytirayotgani aniqlandi. Natijada inson faoliyatida moslashuvchanlik, doimiy o'rganish va innovatsion fikrlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa ijtimoiy munosabatlarning ham dinamik va o'zgaruvchan xarakter kasb etishiga olib kelmoqda.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli jamiyat sharoitida inson faoliyati va ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasi bir yoqlama jarayon emas, balki konstruktiv va destruktiv omillar uyg'unligida kechmoqda. Bir tomondan, raqamli texnologiyalar ijtimoiy faollikni oshiradi, bilim va axborotga keng kirish imkonini yaratadi hamda ijtimoiy aloqalarni kengaytiradi. Ikkinchi tomondan esa, ijtimoiy begonalashuv, axborotga qaramlik va ijtimoiy munosabatlarning yuzakilashuvi kabi muammolarni kuchaytiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari raqamli jamiyatda inson faoliyati va ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi ekanligini tasdiqlaydi hamda ushbu jarayonlarni ilmiy asosda boshqarish va ijtimoiy jihatdan muvozanatlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

**Xulosa va takliflar.** Bugungi kunda global miqyosda jamiyat va ta'lim tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga qadam qo'ydi. Raqamli transformatsiya jarayonlari, ayniqsa so'nggi yillarda, tezlashibgina qolmay, o'zining murakkab va ko'p qirrali xarakteri bilan ajralib turmoqda. Pandemiya davrida yuzaga kelgan fors-major sharoitlari qisqa vaqt ichida ta'lim va ijtimoiy hayotda ilgari o'nlab yillar davomida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kutilgan

o'zgarishlarni jadallashtirdi. Bu holat raqamli texnologiyalarning jamiyat hayotidagi hal qiluvchi rolini yaqqol namoyon etdi.

Axborotni uzatish va almashish jarayonlari jamiyat rivojlanishining asosiy omili sifatida qaralgan sharoitda, ushbu jarayonlarni amalga oshiruvchi inson omiliga e'tibor qaratish alohida ahamiyat kasb etadi. Insonning aqliy va jismoniy salohiyati, bilimlari, ijtimoiy aloqalari va ijodiy imkoniyatlari jamiyat taraqqiyotining muhim manbai sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, inson salohiyati faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki shaxsning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish va mazmunli hayot kechirish darajasi bilan baholanishi lozim.

Raqamli jamiyat sharoitida inson faoliyatining samaradorligi yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, doimiy o'rganish va o'zini rivojlantirishga tayyorlik bilan chambarchas bog'liq. Axborot muhitining kengayishi shaxs uchun bilim va innovatsiyalarga ochiq kirish imkoniyatlarini yaratib, ijodiy faoliyatni rag'batlantiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish kundalik faoliyatga sarflanadigan vaqtni qisqartirib, shaxsiy rivojlanish, malaka oshirish va yangi kompetensiyalarni egallash uchun qulay sharoit yaratadi.

Mazkur tadqiqot natijalariga tayangan holda, raqamli jamiyat sharoitida inson faoliyati va ijtimoiy munosabatlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi: birinchidan, raqamli savodxonlik va madaniyatni oshirishga qaratilgan ta'lim strategiyalarini takomillashtirish; ikkinchidan, raqamli texnologiyalarning ijtimoiy va axloqiy oqibatlarini hisobga olgan holda ularni boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish; uchinchidan, insonning o'zini o'zi rivojlantirishi va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi ijtimoiy muhitni shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, raqamli jamiyatda taraqqiyotning asosiy maqsadi nafaqat texnologik o'sish, balki inson faoliyatining mazmunan boyishi, ijtimoiy munosabatlarning insonparvarlik tamoyillari asosida rivojlanishi va shaxsning erkin tanlov imkoniyatlarini kengaytirishdan iboratdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Медведева Е.А. Информационная культура как предмет преподавания в системе высшего образования // Информатизация и проблемы гуманитарного образования: междунар.научн.конф.: тезисы докл. Краснодар, 1995. С.67-68.
2. Атаян А. Информационная культура личности в условиях информатизации общества [Электронный ресурс] // Бюллетень ВИУ. 2001. Вып. №1(7).

3. Гречихин А.А. Информационная культура: опыт определения и типологического моделирования // Проблемы информационной культуры: сб.статей. Москва: 1994. С.12-39.
4. Алешин Л.И. Гуманитарная информатика: аспекты проблемы // Технологии информационного общества – Интернет и современное общество: труды VI Всероссийской объединенной конференции. Санкт-Петербург, 3 - 6 ноября 2003 г. СПб.: СПбГУ, 2003. С. 1-3
5. Фридланд А.Я. Основные понятия информатики: информация - информационный процесс - информационная культура // Информатика и образование. 2003. № 7. С.120-124
6. Абдуллаев И.З. Информационное общество и глобализация: Критика неолиберальной концепции. Ташкент: «Фан ва технология», 2006. 191 с.
7. Горбунова Ю. И., Горбунова О. Н., Гладышева А. В. Различные подходы к определению сущности рыночной инфраструктуры в экономике информационного типа // Актуальная биотехнология. Издво: Биоактуаль, Воронеж, 2013. № 4(7). С. 47-52.
8. Радюкова Я. Ю., Якименко С. Е. Человеческий потенциал как фактор повышения эффективности управления предприятием // Ученые записки ТРО ВЭОР. Т. 8. Вып. 1. Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2005.
9. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. М.:
10. Академия, 2000. 956 с.
11. Ёкубова М. Ижтимоий тараққиёт ва маданиятнинг ахборотлашуви. – Тошкент: Nishon-posir, 2010. – Б.9.
12. Лачинян С. Метоисторические перспективы человечества [Электронный ресурс]: URL[http://www.sciteclibrary.ru/rus/catalog/pages/7117. htm](http://www.sciteclibrary.ru/rus/catalog/pages/7117.htm)
13. Джой-Меттьюз Д., Меггинсон Д., Сюрте М. Развитие человеческих ресурсов. М.: Эксмо, 2006.
14. Котлер Ф., Картаджайа Х Маркетинг 4.0. Разворот от традиционного к цифровому: технологии продвижения в интернете М. Эксмо 2019. - 224с.
15. Perrow C. Normal Accidents: Living with High-Risk Technologies. N.Y., 1986.
16. Гобозов И.А. Глобализация, стандартизация и шоу // Философия и общество. 2002. № 3. С. 116–132.

17. Содиржонов М. Социологический анализ динамики и трансформации человеческого капитала //in Library. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 177-184.
18. Содиржонов М. Ijtimoiy transofrmatsiya jarayonlarida inson kapitalini rivojlantirish //in Library. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 197-201.
19. Содиржонов М. Инсон капитали ривожига шахсининг онги, билими, ахлоқ-одобига дунёкарашига боғлиқ." //Янги Ўзбекистон" газетаси. – 2022. – Т. 10.
20. Содиржонов М. М. БОЗОР ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ЭТНИК МУҲИТГА ТАЪСИРИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР //Ижтимоий фанлар. – 2020. – Т. 6. – №. 3.